

**“Iqtisodiy bilim asoslari” fani bo’yicha  
Respublika Ta’lim markazi Bosh metodisti  
Xotamova Xurmatoy Kurbanovnaning**

**8-sinflar uchun “Mehnat taqsimoti va  
ixtisoslashuv”**

**mavzusida tayyorlagan bir soatlik**

**DARS ISHLANMASI**



**“Iqtisodiy bilim asoslari” fanidan “Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv” mavzusi buyicha dars ishlanmasi.(Darsning texnologik xaritasi).**

5- Mavzu	Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv.(8- sinf)
Maqsad, vazifalar	<p>Maqsad:</p> <p>a)ta’limiy: Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv to’g’risida tushuncha berish;</p> <p>b) tarbiyaviy: o’quvchilarning iqtisodiyot fani orqali hayotni to’g’ri tasavvur eta olish malakasini o’stirish, hunarga mehr ko’zi bilan qarashga o’rgatish, xalq og’zaki ijodidan foydalanish orqali ta’lim –tarbiya berish.</p> <p>c) rivojlantiruvchi: Dars jarayonida o’quvchilarning faolligini oshirish, og’zaki va yozma fikrlashini rivojlantirish, mavzu asosida bilim va ko’nikmalarini shakllantirish, mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o’quvchilar guruh holida o’zlashtirib olishlari va suhbat- munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o’zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</p>
O’quv jarayonining mazmuni	Dars jarayonida faollantiruvchi savol va tophiriqlardan foydalaniladi, mehnat unumdorligi, unga ta’sir etuvchi omillar, mahsuldorlik, texnologiya, mehnat taqsimotining salbiy va ijobiy tomonlari, ixtisoslashuv tushunchalari yoritiladi.
O’quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Darsturi: Yangi materialni o’rganuvchi dars.</p> <p>Metod: aqliy hujum</p> <p>Vosita: tarqatma materiallar: matn va rasmlar, doska, test kartochkalari</p> <p>Nazorat: og’zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o’z-o’zini nazorat qilish</p> <p>Baholash: rag’batlantirish, 5 balli tizimda</p>
Kutiladigan natijalar	Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishiga erishiladi. O’quvchi faolligi oshadi, darsga nisbatan qiziqishi uyg’onadi, barcha o’quvchilar baholanadi, o’quvchi tomonidan yozma axborotni mustaqil o’rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va javob berishga o’rganadi
Kelgusi rejalar (tahlil, o’zgarishlar)	<p>O’qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o’zlashtirish va darsda tadbiq etish, takomillashtirish. O’z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog’lash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O’quvchi: Matn bilan mustaqil ishlashni o’rganadi. O’z fikrini ravon bayon qilaoladi, shu mavzu asosida qo’shimcha materiallar topadi, ularni o’rganadi. O’z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini oshiradi.</p>

**Sana:** \_\_\_\_\_

**Sinf:** VIII

**Fan:** "Iqtisodiy bilim asoslari"

**Mavzu:** "Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv"

### **I. Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** O`quvchilarga mehnat taqsimoti, mehnat unumdorligi, mahsuldorlik va ixtisoslashuv to`g`risidagi tushunchalar ni berish.

**Rivojlantiruvchi:** mehnat taqsimotining afzalliklari va kamchiliklarini aytish, mehnat unumdorligini sodda misolda aniqlay olish ko`nikmalarini shakllantirish..

**Tarbiyaviy:** O`quvchilarni darslikdan tashqari adabiyotlarni va internet ma`lumotlarini o`rganishga da`vat etish; o`z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash; jamoa bo`lib ishlash, ona Vatanga muhabbat va ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalash; mavzu bo`yicha olingan bilimlarni hayotda qo`llay olish malakasini shakllantirish

**Dars metodi (uslub):** Ko`rgazmali-amaliy, og`zaki bayon qilish, "Aqliy hujum" "Zakovat", "Tushunchalar tahlili";

**Dars tipi(turi):** Yangi bilimlar beruvchi;

**Dars shakli:** Kichik guruhlar va jamoada ishlash darsi

**Dars didaktikasi(ko`rgazmali vositalar):**

**a) jihozi:** Darslik, yozuv taxtasi, tarqatma materiallar, tezkor savollar yozilgan tarqatmalar, qog`oz, marker, skotch, yelim, o`quv qurollari;

**b) texnik vositalari:** kompyuter, videoprojektor

**Tarix, geografiya, matematika fanlari bilan bog`lab o`tish.**



## Dars bosqichlari va vaqt taqsimoti:

T/r	Darsning bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	Guruhlarga topshiriq berish orqali o`tilgan mavzuni so`rash	8 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
4	Amaliy mashqlar bajarish orqali mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni: 1.Darsga xulosa yasash 2. G`olib guruhni aniqlash va o`quvchilarni baholash	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism:

- a) Psixologik iqlim yaratish (salomlashish, davomat, ob-havo, sana)
- b) Darsning mavzusini va maqsadini e`lon qilish (o`rganiladigan BKM lar)
- d) O`quvchilarni guruhlarga ajratish, “Dehqon bozori”, “Qurilish bozori”, “Tovar birjalari” hamda “Intellektual tovarlar bozori” nomlari bilan nomlash va guruh sardorlarini tayinlash;
- e) Baholash mezonlari haqida tushuncha berish (“Ofarin”, “Barakallo”, “Harakat qil” so`zlari yozilgan shakllar);



Dars boshlanadi. O`quvchilar bilan salomlashib, sana, fan, davomat, ob-havo, fasl haqida so`raladi.

#### **“Zakovat” savollari**

1. Tadbirkorlik layoqati va ishchi kuchi omili o`rtasida qanday farq bor?
2. O`zbekistonda Asaka zavodining ishga tushirilishi iqtisodiyotga qanday ta`sir ko`rsatdi?
3. Paxta xomashyosi ni import qilingani afzalmi yoki eksportmi? Nima uchun?
4. Iqtisodchilar ishlab chiqarishni qanday sohalarga ajratadilar?
5. Ko`ylak ishlab chiqarish uchun qanday omillar kerak bo`ladi?

O`quvchilarning savollarga qay darajada javob berganliklariga qarab **“Ofarin”**, **“Barakallo”**, **“Harakat qil”** so`zlari yozilgan shakllardan tegishlisi taqdim etiladi.

### **III. Yangi mavzu bayoni: Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv.**

**Reja:**

1. Mehnat taqsimoti haqida tushuncha.
2. Mehnat taqsimotining afzalligi va kamchiliklari.
3. Ixtisoslashuv va hududiy ixtisoslashuv.

O`quvchilarning ijodiy fikrlashi va jahonda bo`layotgan voqealar hamda yangiliklarni qay darajada bilishlarini sinash maqsadida ekranda mehnat taqsimotini jarayonini aks ettiruvchi kinofilmdan qisqa lavha namoyish etiladi.

Kinofilm namoyishidan so`ng, mehnatni qay tariqa taqsimlanganligi ish jarayoni to`g`ri tashkil etilganligi yoki yo`qligi, ular bu jarayonni qanday amalga oshirgan bo`lar edilar guruhlarining ta`surotlari va fikrlari so`raladi. Guruhlarning bergan javoblariga qarab tegishli rag`bat bilan taqdirlanadi.

O`qituvchi yangi mavzuni o`quvchilarga tushuntirish jarayonida darslik, "Pul, bozor, kredit" jurnali, internet yangiliklari asosida yangi mavzuni tushuntirib beradi.

### **Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar**



1. Yuqoridagi rasmga qarab kulolchilik ustaxonasida mehnat qanday taqsimlanishi kerakligini soʻzlab bering.
2. Nima uchun mehnatni bunday taqsimlagan maʼqul deb oʻylaysiz?
3. Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvni iqtisodiyot uchun qanday naif bor?
4. Har qanday tizimda mehnat taqsimotini boʻlgani maʼqulmi?

Mahsuldorlik- resurs birligidan foydalanib ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

Texnologiya- Mahsulot ishlab chiqarishda qaysi resurslardan foydalanish, qanday usul va ketma- ketlikda ishlov berish yoʻl- yoʻrigʻi.

Mehnat unumdorligi- vaqt birligi ichida bir birlik tesursdan foydalanib ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar miqdori.

Mehnat taqsimoti- mahsulot ishlab chiqarish jarayonining ishchilar oʻrtasida ishni taqsimlash asosida tashkil qilinishi.

Ixtisoslashuv- biror mahsulot turini yoki mahsulotning bir qismini ishlab chiqarish boʻyicha korxonalar oʻrtasida mehnat taqsimoti.

Hududiy ixtisoslashuv – sharoit, anʼanalar, mahalliy imkoniyatlar tufayli butun bir hudud mahsulotning biror turini ishlab chiqarishga moslashuvi.

### 3. Amaliy ish





Yuqoridagi rasmlarga qarab biror korxonada mehnat taqsimotini amalga oshiring. Javoblar tinglanadi va guruhlar ragʻbatlantiriladi.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Oʻquvchilarni oʻrganilgan mavzu boʻyicha BKMLarini sinash maqsadida guruhlariga **“Tushunchalar tahlili”** tarqatiladi.

<b>Tushunchalar</b>	<b>Tahlili</b>
Mehnat taqsimoti	
Mehnat unumdorligi	
Ixtisoslashuv	
Hududiy ixtisoslashuv	
Mahsuldorlik	

**V. Baholash.** Dars soʻngida guruhlardagi ragʻbatlar soni va yigʻgan ballari hisoblanadi. Gʻolib guruh eʼlon qilinib, dars davomida faol ishtirok etgan oʻquvchilar baholanadi.

#### **VI. Uyga vazifa beriladi.**

- Bilimingizni sinab koʻring. 8-sinf darsligi, 107-bet
- Topshiriq



➤ “Buni yodda tuting” o’qib kelish

**“Iqtisodiy bilim asoslari” fanidan “Soliqlar va ularning turlari” mavzusi buyicha dars ishlanmasi.(Darsning texnologik xaritasi).**

Mavzu	Soliqlar va ularning turlari
<b>Darsning maqsad va vazifalari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O’quvchilarga soliqlarning mazmuni va turlari haqida ma’lumotlar berish. Davlat va mahalliy miqyosdagi soliqlarni tushuntirish.</li> <li>• Davlat va mahalliy miqyosdagi soliqlarni farqlay olish, soliqlar nimalar uchun sarflanishini ayta olish, ko`nikmalarini shakllantirish;</li> <li>• Soliqlarni o`z vaqtida to`lash madaniyatini shakllantirish;</li> </ul>
<b>O’quv jarayoning mazmuni</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Soliq haqida tushuncha</li> <li>• Mamlakatda soliqlarni joriy etishdan ko`zlangan maqsad;</li> <li>• Soliqlarning turlari</li> <li>• Bevosita va bilvosita soliqlar</li> <li>• Davlat va mahalliy soliqlar</li> </ul>
<b>O’quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi.</b>	<p><b>Usulubi:</b>Og’zaki bayon qilish, “ Tushunca tahlili” uslubi. Kichik guruhlar va jamoada ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Tarqatma materiallar.boshqotirma, ko`rsatmali material, darslik.</p> <p><b>Nazorat:</b>Og’zaki nazorat, yozma nazorat, savol – javoblar, kuzatish,o`z-o`zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash.</b> Rag’batlantirish 5 balli tizim asosida .</p>
<b>Kutiladigan natijalar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O’quvchilarning qisqa vaqt ichida mavzu bo’yiicha ma’lumotlarni o’zlashtirishi;</li> <li>• Soliqlarning mazmunini ayta olishi;</li> <li>• Soliq solishdan ko`zlangan asosiy maqsadni tushuntirib bera olishi</li> <li>• Jismoniy shaxslar tolaydigan soliqlarni va yuridik shaxslar to`laydigan soliq turlarini farqlay olishi</li> <li>• davlat va mahalliy soliqlarini aytib berishi.</li> <li>• O`z vaqtida to`langan soliqlar ham davlat uchun, ham aholi uchun, ham mamlakat uchun foydali ekanligini ahglab yetish.</li> </ul>
<b>Kelgusi rejalar (tahlili.o`zgarishlar)</b>	<p>O’qituvchi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• O`z bilimini oshirish maqsadida ko`proq gazeta va jurnallardan ayniqsa “Soliq va bojxona xabarleri” jurnalidan tizimli foydalanishi lozim.</li> <li>• Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishi.</li> <li>• Pedagogik mahoratini yanada oshirishi kerak;</li> </ul> <p>O’quvchi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mustaqil ishlashni , izlanishni o`rganishi;</li> <li>• Mustaqil Internetdan materiallar olishni;</li> </ul>

- |  |   |
|--|---|
|  | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Olingan materiallarni tahlil qilishni;</li> <li>• Egallagan bilimlarini o`rtoqlari bilan muhokama qilishni organishi kerak.</li> </ul> |
|--|---|

Fan: " Iqtisodiy bilim asoslari"

8-sinf. ( 28 – dars).

**Mavzu: Soliqlar va ularning turlari.**

**Maqsadi:** O`quvcilarni "Soliqlar va ularning turlari" mavzusidagi bilim, ko`nikma va malakalarni egallashlariga erishish:

**Vazifalari:**

- ✓ Soliq to`lash savobligini anglash;
- ✓ Soliq turlari sanab berish;
- ✓ davlat va mahalliy miq`yosdagi soliqlarni farqlay olish;
- ✓ Soliq to`lovining o`ziga xos xususiyatlarini tushuntirish;
- ✓ Bevosita va bilvosita soliqlarni ayta olish;

**Darsda jarayonida egallashlari lozim bo`lgan asosiy atamalar:**


- ✓ soliq;
- ✓ jismoniy shaxs;
- ✓ yuridik shaxs;
- ✓ to`g`ri soliq;
- ✓ egri soliq;

**Darsga tayyorgarlik va darsga kerakli bo`lgan vositalar;**

1. **Vositalar;** darslik, soliq to`lovlari aks etgan slaydalar, ko`rsatmalar, topshiriqli tarqatmalar.



2. **Sinf tayyorgarligi:** Dars jarayoniga guruxni shakllantirish, sinf partalarini joylashtirish va stol ustiga oila, bank, tadbirkor, do`kon, pul, tovar rasmlari aks etgan kartochkalarni qo`yiladi.



**Darsning turi:** yangi mavzuni bayon etivchi;

**Darsda qo'llanilgan metodlar;** aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, namoish etish, suhbat;

### **Dars bosqichlari va vaqt taqsimoti:**

1	Tashkiliy qism	2daqqa
2	Uyga berilgan vazifalarni nazorat qilish	5 daqiqa
3	Yangi mavzuni yoritish	18 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash: b)guruhlarda mustaqil ishlash d) taqdimot qilish e) test ishlash	15 daqiqa 5 daqiqa 5 daqiqa 5 daqiqa
5	Baholash	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa

### **Darsning borishi.**

#### **I. Tashkiliy qism;**

O'quvcilar sinfga kirishadi ularning har biriga stol ustidagi rasmlar aks etgan kartochkalarni olish tavsiya etiladi va rasmlar bo'yicha stollarga o'tirish kerakligi aytiladi.

#### **II. O'tilgan mavzudagi bilimlarni mustahkamlash.**

- ✓ Bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoillari haqida nimalarni bilasiz?
- ✓ Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi deganda nimani tushunasiz? Javobi;(Bu tamoyilga ko'ra ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan xoli qilinadi. Iqtisodiyot siyosatdan ustun qo'yiladi.)
- ✓ Davlat – bosh islohotchi – deganda nimani tushunasiz? Javobi; (Bu tamoyilga ko'ra davlat butun xalq manfaatlaridan kelib chiqib, islohat jarayonlarining tashabbuskori bo'adi.)
- ✓ Qonunlarga rioya etish tamoili o'zida nimalarni aks ettiradi?
- ✓ Faol ijtimoiy siyosat yuritish deganda nima nazarda tutilgan?
- ✓ Bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o'tish tamoilini tushuntirib bering

Mamlakatimizda bozor iqtirodiyotiga o`tish davrida qanday islohatlar o`tkazildi? Javobi; ( Bunga misol qilib, mulkchilik, qishloq xo`jaligi, moliya – kredit, tashqi iqtisodiy aloqalar va ijtimoiy sohadagi amalga oshirilgan islohatlarni keritirish mumkin.)

. Sizlar bilan, O`zbekiston bozor iqtisodiyotiga o`tishning besh tamoyili haqidagi bilimlarimizni mustahkamlab oldik.

### III. Yangi mavzu: Soliqlar va ularning turlari.

#### Mavzuni bayon qilish rejasi:

- 1). Soliqlar va ularning mohiyati
- 2). Soliq turlari.
- 3). Davlat va mahalliy miqyosdagi soliqlar.


Yangi mavzu o`qituvchi tomonidan slaydlar , ko`rsatmalar , sinf doskasidan foydalanib tushuntirib beriladi.Moslikka oid jadval to`ldiriladi.


Atamalar	javobi	Talqinlar
Jismoniy shaxs		a). O`zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslar;
To`g`ri soliq		b). O`zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq tashkil etilgan korxonalar, firmalar, ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish muassasalari;
Egri soliq		c). fuqaro, firma va korxonalardan davlat xazinasiga undiriladigan, qonunda ko`rsatilgan majburiy to`lov.
Soliq		d).fuqaro va korxonalardan bevosita davlat xazinasiga undiriladigan soliq;
Yuridik shaxs		e). fuqarolar tomonidan avvaliga muayyan tovarlarni sotuvchi korxonalariga to`lanadigan, so`ng korxonadan davlatga o`tkaziladigan soliq.

### IV. Mavzuni mustahkamlash uchun guruhlariga topshiriqli tarqatma materiallar beriladi

Guruxlarga:

1. Soliqlar va ularning mohiyati bo`yicha ma`lumot berish. Hamda soliq turlarini, davlat va mahalliy miqiyosdagi soliqlarni jadvalga yozish bo`yicha topshiriqlar yozilgan kartochkalar guruxlarga tarqatiladi.





Topshiriqlarga tayyorgarlik, taqdimot qilishdagi gurux ishi uchun (5 daqiqa) vaqt ajratiladi. Curuxlarning ishlash jarayonida o'quvchilarning ishtiroki kuzatib boriladi va kerak bo'lgan joylarda ko'rsatmalar beriladi.

Curuxlarning taqdimoti tinglanadi. (5 daqiqa).

Curuxlarning taqdimot qilish jarayonini o'quvchilar tinglaydilar va savol berishlarini aytiladi.

O'qituvchi tomonidan mavzuga umumlashtirilgan holda qisqacha yakun yasaladi. O'quvchilarning dars davomidagi egallagan bilim, ko'nikma va malakalari test savollarini yechish orqali tekshiriladi(5 daqiqa)

1. Quyidagilarning qaysi birida faqat davlat soliqlari aks ettirilgan?

- a) mulk solig'i, daromad solig'i, yer solig'i
- b) yer solig'i, mol-mulk solig'i
- c) qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz solig'i, fuqorolarning daromad solig'i va bojxona solig'i
- d) bojxona soliqlari, aksiz solig'i

2. Quyidagilarning qaysi birida faqat mahalliy soliqlar aks ettirilgan ?

- a) bojxona soliqlari, aksiz solig'i
- b) yer solig'i, mol-mulk solig'i, mahalliy yig'imlar

- c) mulk solig'i, daromad solig'i, yer solig'i
- d) qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz solig'i, fuqorolarning daromad solig'i va bojxona solig'i

5. To'g'ri soliqlarni kimlar to'laydi ?

- a) aholi va korxonalar
- b) iste'molchilar
- c) savdo tashkilotlari
- d) ta'minotchilar

6. Aksiz solig'i qaysi mahsulotlardan olinadi

- a) spirtli ichimlik va tamaki mahsulotlaridan
- b) oziq-ovqat mahsulotlaridan
- c) kiyim-kechak mahsulotlaridan
- d) non mahsulotlari

**V. O'quvchilar bilimni baholash.** Darsda faol ishtirok etgan guruh aniqlanadi har bir guruhdan eng faol o'quvchilar ragbatlantiriladi

#### **VI. Uyga vazifa:**

1. O'quvchilarga uyda mustaqil izlanish uchun muammoli vaziyat ko'rsatilgan jadval beriladi.

Muammoning turi	Buning natijasida kelib chiqadigan oqibatlar	Muammoni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz .
1. Soliqlar o'z vaqtida to'lanmadi.		

2. Har bir o'quvchi o'zining oilasida to'lanadigan soliq turlarini bilib kelish.

3. Bilimingizni sinab ko'ring bandidagi savollarga javob topish

#### **Foydalanish uchun matnlar..**

Davlat jamiyat oldidagi qator ijtimoiy vazifalarni o'z zimmasiga olar ekan, unga katta miqdordagi pul mablag'lari zarur bo'ladi. Shu bois, davlat ko'rsatiladigan xizmatlar uchun o'z fuqarolari, firma va korxonalardan soliq ko'rinishidagi to'lov undiradi. Demak, mamlakat fuqarosi sifatida har birimiz bizga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat, ta'lim, mudofaa xizmati, jamoat tartibini saqlash kabi xizmatlar uchun davlatga soliq ko'rinishida haq to'lar ekanmiz.

Ikkinchi tomonidan, davlat muayyan sohada faoliyat ko'rsatayotgan firma va korxonalar to'laydigan soliqlar miqdorini kamaytirib, ularga ma'lum soliq imtiyozlari berishi mumkin. Bu esa korxonalar faoliyatini rag'batlantirib, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining oshishiga olib kelishi mumkin. Demak, soliqlar yordamoda davlat korxonalar iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirib turishi mumkin ekan.

Respublikamiz qonunlariga muvofiq tashkil etilgan korxonalar, firmalar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish muassasalari **yuridik shaxslar** hisoblanadi.

**Soliq**-Jismoniy va yuridik shaxslardan davlat xazinasiga undiriladigan qonunda belgilangan majburiy to'lov.

**Soliqlarning quyidagi turlari** mavjud:

- ✓ Korxonalar foydasi (daromadi)dan olinadigan soliq;
- ✓ yer solig'i;
- ✓ qo'shilgan qiymat solig'i;
- ✓ aksiz solig'i.
- ✓ jismoniy shaxslarning daromad solig'i;
- ✓ tabiiy boyliklardan foydalanganlik uchun soliq.

Soliqlar **to'g'ri va egri soliq** turlariga bo'linadi. Fuqaro va korxonalardan bevosita davlat xazinasiga undiriladigan soliqlar **to'g'ri soliqlar** deb ataladi. Korxonalar foydasi (daromadi)dan olinadigan soliq, yer solig'i, daromad solig'i kabilar to'g'ri soliqlar jumlasiga kiradi.

Fuqarolar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri davlatga emas, balki avvaliga muayyan tovarlarni sotuvchi korxonalarga to'lanadigan, soliq esa korxonalar tomonidan davlatga o'tkaziladigan soliqlar **egri soliqlar** deb ataladi. Egri soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabilar kiradi. Ba'zi soliqlar to'g'ridan to'g'ri davlat xazinasiga kelib tushadi. Bunday soliqlar **davlat soliqlari** deb ataladi. Davlat soliqlariga **qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, korxonalar foydasi (daromadi)dan olinadigan soliqlar, fuqarolardan olinadigan daromad solig'i** kabilar kiradi.

Mahalliy hokimiyat, viloyat, tuman boshqaruv organlari ixtiyoriga beriladigan soliq turlari **mahalliy soliqlar** deb yuritiladi. Bunday soliq turlariga **yer solig'i, mol-mulk solig'i** kabi soliqlar va qator **mahalliy yig'imlar** hamda soliqdan tashqari ba'zi majburiy to'lovlar kiradi.

### **Iqtisodiy bilim asoslari “Tadbirkorlik” mavzusi buyicha dars ishlanmasi ning texnologik xaritasi.**

<b>1-Mavzu</b>	<b>Tadbirkorlik. 9-sinf</b>
<b>Maqsad, vazifalar</b>	Maqsad:  a) ta'limiy: tadbirkorlik va uning xususiyatlari, tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli, tadbirkorlik faoliyati turlari to'g'risida tushuncha berish;  b) tarbiyaviy: o'quvchilarni mehnatga qiziqishlarini orttirib borish, iqtisod fani orqali hayotni to'g'ri tasavvur eta olish malakasini o'stirish, hunarga mehr ko'zi bilan qarashga o'rgatish, xalq og'zaki ijodidan foydalanish orqali ta'lim –tarbiya berish.  c) rivojlantiruvchi: Dars jarayonida o'quvchilarning faolligini

	<p>oshirish, og'zaki va yozma fikrlashni rivojlantirish, mavzu asosida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar guruh holida o'zlashtirib olishlari va suhbat- munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</p>
<p><b>O'quv jarayonining mazmuni</b></p>	<p>Dars jarayonida faollashtiruvchi savol va topiriqlardan foydalaniladi, tadbirkorlik va uning xususiyatlari, tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli, tadbirkorlik faoliyati turlari, mavzuga doir masalalar yoritiladi.</p>
<p><b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b></p>	<p>Dars turi: Yangi materialni o'rganuvchi dars.</p> <p>Metod: guruhda o'qitish, tushunchalar tahlili</p> <p>Vosita: tarqatma materiallar: matn va rasmlar, doska, test kartochkalari</p> <p>Nazorat: og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish</p> <p>Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizimda baholash</p>
<p><b>Kutiladigan natijalar</b></p>	<p>Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishiladi. O'quvchi faolligi oshadi, darsga nisbatan qiziqishi uyg'onadi, barcha o'quvchilar baholanadi, o'quvchi tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va javob berishga o'rganadi</p>
<p><b>Kelgusi rejalari (tahlil, o'zgarishlar)</b></p>	<p>O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tadbir etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O'quvchi: Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi, shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini oshiradi.</p>

## **Mavzu: Tadbirkorlik**

### **1.Dars maqsadi :**

- tadbirkorlik haqida tushunchaga ega bo'lish va uning xususiyatlarini sanay olish ;
- tadbirkorlikning bozor iqtisodiyotidagi rolini anglash ;
- biznes rejaning tadbirkorlik faoliyatidagi ahamiyatini tushunib yetish.
- Tadbirkorlik faoliyati turlariga ayta olish



- Iqtisodiy faoliyatning tadbirkorlikka xos turlarini bilish ;
- har bir tadbirkorlik faoliyati turining afzallik va kamchiliklarini sanash;

## **II.Darsda yoritilishi lozim bo'lgan asosiy atama va tushunchalar:**

- tadbirkorlik
- biznes reja
- ishlab chiqarish
- tijorat;
- moliyaviy tadbirkorlik;
- vositachilik;
- sug'urta;

**III.Dars uchun zarur jihozlar va ma'lumot manbalari :**Ko`rsatmalar, topshiriqli varaqlar 9-sinf darsligi

## **IV.Darsning bosqichlari va vaqt taqsimoti:**

<b>1</b>	<b>Tashkiliy qism</b>	<b>2 daqiqa</b>
<b>2</b>	<b>O'tilgan mavzuni mustahkamlash;</b>	<b>5 daqiqa</b>
<b>3</b>	<b>Yangi mavzuni yoritish:</b>  a) bahs-munozara - 6 daqiqa b) mustaqil ishlash - 15 daqiqa c) umumlashtirish - 4 daqiqa	<b>25 daqiqa</b>
<b>4</b>	<b>Yangi mavzuni mustahkamlash</b>	<b>6 daqiqa</b>
<b>5</b>	<b>Darsga yakun yasash va baholash</b>	<b>5 daqiqa</b>
<b>6</b>	<b>Uyga vazifa</b>	<b>2 daqiqa</b>

## **V. Darsning tafsilotlari:**

### **1.Tashkiliy qism.**

O'quvchilar bilan salomlashib davomat tekshiriladi.

### **II.Yangi mavzuni boshlashga xozirlik.**

Dars tadbirkorlikka ta'rif berish bilan boshlanadi:

Tadbirkorlik deganda, kishilarning foyda olish maqsadida, tavakkalchilik asosida, o'z mablag'I, mulki, bilimi va imkoniyatlarini ishga solib tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati tushuniladi.

### **III. Yangi mavzuni yoritish.**

Tadbirkorlikni ishbiarmonlik yoki biznes, deb ham atashadi. Bunday faoliyat bilan shug'ullanuvchilarni ishbiarmonlar, tadbirkorlar yoki biznesmenlar ham deb atashadi. So'ng o'quvchilar e'tibori darslikdagi rasimga qaratiladi. Rasmda berilgan tadbirkorlikka xos fazilatlar bilan tanishtiriladi va o'quvchilarga quyidagi savol beriladi:

***Rasmdagi bo'sh kataklarga tadbirkorlikka xos yana qanday fazilatlarni yozgan bo'lar edingiz? Nega?***

O'quvchilarga o'ylash va bo'sh kataklarni to'ldirish uchun vaqt ajratiladi, so'ng fikrlari tinglanadi.

**Javob:** Bo'sh kataklarga tadbirkorlikka xos quyidagi qo'shimcha fazilatlar yozilishi mumkin:

- Tashabbuskorlik
- Barcha iqtisodiy mas'uliyatni zimmaga olib tavakkal qilish;
- Halol ish yuritish va qonunlarga rioya qilish;
- Halol raqobatda qatnashish.
- Tadbirkor yuqoridagi tashabbuskorlikva barcha iqtisodiy mas'uliyatni zimmaga olib tavakkal qilish fazilatlariga ega bo'lmasa tadbirkor bo'la olmaydi. Tadbirkor halol ish yuritish va qonunlarga rioya qilish; halol raqobatda qatnashish kabi qo'shimcha fazilatlarga ega bo'lish, unga rioya qilish bilan davlat, sheriklari hamda mijozlari oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajaradi, ular oldida hurmati, nufuzi oshadi.
- ***Yuqorida keltirilgan tadbirkorlikka xos fazilatlarni muhimlik darajasiga qarab ketma-ket yozib chiqing va o'z yechimingizni sharhlang.***

O'quvchilarga tayyorgarlik uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Tayyorlanib bo'lisggach doskaga 2 ta o'quvchi chiqib o'z yechimlarini yozadi. Bildirilgan fikrlar sinfdagi o'quvchilar bilan hamkorlikda tahlil qilinadi.

### ***Tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli qanday?***

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik omili tabiiy, capital va mehnat omillari bilan bir qatorda ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanadi.

Tadbirkorlik jamiyat uchun kerak, chunki shu faoliyat tufayli yangi, qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi. Turli-tuman tovar va xizmatlar ishlab chiqarish ko'payadi. Natijada iste'molchi ehtiyojlari yanada to'laroq qondiriladi. Tadbirkorlik iste'molchi uchungina emas, davlat uchun ham foydali faoliyat bo'lib hisoblanadi. Davlat tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish bilan, aholini ish bilan ta'minlash. keng iste'mol tovarlari va xizmatlar ishlab chiqarish kabi vazifalarni ma'lum ma'noda o'zidan soqit qiladi. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan soliqlar hisobidan davlat xazinasi boyiydi.

### ***Tadbirkorlikni nimadan boshlash kerak?***

O'quvchilarga savol beriladi va javoblar eshutiladi.

Tadbirkorlik biznes g'oyadan boshlanadi. Biznes g'oya qanchalik to'g'ri tanlansa, muvaffaqiyatga erishish imkoniyati shuncha ko'p bo'ladi. Biznes g'oyani amalga oshirish uchun aniq hisob-kitoblarga asoslangan, puxta o'ylangan reja tuzilishi lizim. Tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqib, u quyidagi turlarga bo'linadi:

**1. Ishlab chiqarish.** Ishlab chiqarish faoliyatiga asoslangan tadbirkorlikda, tadbirkor kapital, mehnat, tabiiy omillarni birgalikda harakatga keltiradi yoki ishlab chiqarish vositalari- yer, bino va inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo sotib oladi, ishchi xodimlarni ishga oladi, har xil tovarlar ishlab chiqaradi hamda sotadi.

**2. Tijorat, savdo-sotiq** Tadbirkorlikning bunday turi bilan shug'ullanuvchilar tovarlarni sotib olishadi va iste'molchi topib sotishadi. Albatta, bu holatda tovarning sotish narxi, xarid narxidan yuqori bo'ladi. Natijada tadbirkor foyda ko'radi. Biznesning bu turi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar qayerda qaysi tovarlar arzon va sifatli ishlab chiqarilishini, bu holatda talabning ko'pligi, narxi balandligini yaxshi bilishlari shart.

**3. Moliyaviy tadbirkorlik** Tadbirkorlikning bu turi ham tijoratga o'xshaydi, ammo bunda tovarlar o'rniga pul va qimmatbaho qog'ozlar oldi-sotdisi bilan shug'ullanishadi. Pul mablag'lari qarzga beriladi, chet el valyutalari, aksiya, veksels va boshqa qimmatli qog'ozlar sotib olinadi. va sotiladi.

**4. Vositachilik.** Vositachilik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar sotuvchi va xaridor o'rtasida vositachilik qilib, oldi-sotdi jarayonini tezlashtiradi, tovar egasini iste'molchi bilan uchrashtirish evaziga haq oladi. Vositachilar qayerda, qanday tovar, qanday narxda ishlab chiqarilishi va sotilishi, kimda shu tovarga zarurat borligini bilishi va bu ma'lumotni sharoitga qarab pullashi bilan boshqalardan ajralib turadi.

**5. Sug'urta.** Tadbirkorlikning bunday turi bilan shug'ullanuvchilar, turli xil kutilmagan voqealar natijasida ko'rilgan zararni qoplashga ma'lum badal evaziga kafolat beradi va bunday holatlar

yuz berganda zararni qoplash bilan shug'ullanadi.Hozirgi vaqtda mulk sug'urtasi,hayot sug'urtasi,tibbiyot sug'urtasi kabi sug'urta shakllari bor.

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Sinf 4 guruhga ajratiladi.Guruhlarga darslikdagi topshiriqlar beriladi.

Agar siz tadbirkor bo'lganingizda qanday Tovar ishlab chiqargan yoki qanday xizmat ko'rsatgan bo'lar edingiz?O'z biznes g'oyangizni asoslang va uni amalga oshirish bo'yicha bo'yicha biznes loyiha tuzing.

Guruhlarda ishlash uchun 3 daqiqa vaqt beriladi.Taqdimot uchun esa 2 daqiqa vaqt ajratiladi.

#### Tadbirkorlik faoliyati turlarining qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?

Guruhlarga 2 daqiqa vaqt beriladi va fikrlar tinglanadi.

Qisqa javobli test topshiriqlarini otkazish orqali mavzu bo'yicha egallangan bilimlar nazorat qilinadi.

1. Tadbirkorlik nimadan boshlanadi? ( biznes g'oyadan)
2. Vositachilik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar sotuvchi va xaridor o'rtasida vositachilik qilib,oldi-sotdi jarayonini tezlashtiradi,tovar egasini iste'molchi bilan uchrashtirish evaziga haq oladi (**Vositachilik**)
3. Turli xil kutilmagan voqealar natijasida ko'rilgan zararni qoplashga ma'lum badal evaziga kafolat beradi va bunday holatlar yuz berganda zararni qoplash bilan shug'ullanadigan tadbirkorlar qanday nomlanadi? (**Sug'urta**)
4. Kishilarning foyda olish maqsadida,tavakkalchilik asosida,o'z mablag'i,mulki,bilimi va imkoniyatlarini ishga solib tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati nima deb ataladi. (Tadbirkorlik)
5. Biznes g'oyani amalga oshirish maqsadida bajarish zarur bo'lgan, o'zaro muvofiqlashtirilgan hatti harakatlar dasturidan iborat hujjat qanday nomlanadi ? (biznes reja)

#### V. Dars mavzusini yakunlash va baholash.

Faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi va jurnalga qayd etiladi

#### VI. Uyga vazifa.

- 1.Mavzuning"Bilimingizni sinab ko'ring" bandidagi savollarga javob topish .

### Tadbirkorlikning xususiyatlari



1. Berilgan rasmdagi bo'sh joylarga tadbirkorlikka xos yana qanday fazilatlarni yozgan bo'lar edingiz?
2. Tadbirkorlikka xos fazilatlarni muhimlik darajasiga qarab ketma-ket yozib chiqing va ularni sharhlang.

## Iqtisodiy bilim asoslari “Firma ochish” mavzusi buyicha dars ishlanmasi

4-Mavzu	Firma ochish. 9-sinf
<b>Maqsad, vazifalar</b>	<p><b>Maqsad:</b></p> <p>a) ta’limiy: firma ochish, firma nizomi, ta’ sis shartnomasi</p> <p>b) taniqliik belgilari atamalarining mohiyatini o’rgatish;</p> <p>b) tarbiyaviy: o’quvchilarning firmalarni ochishga qiziqishlarini orttirib borish, iqtisod fani orqali hayotni to’g’ri tasavvur eta olish malakasini o’stirish, hunarga mehr ko’zi bilan qarashga o’rgatish, xalq og’zaki ijodidan foydalanish orqali ta’lim –tarbiya berish.</p> <p>c) rivojlantiruvchi: Dars jarayonida o’quvchilarning faolligini oshirish, og’zaki va yozma fikrlashni rivojlantirish, mavzu asosida bilim va ko’nikmalarini shakllantirish, mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o’quvchilar guruh holida o’zlashtirib olishlari va suhbat- munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o’zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</p>
<b>O’quv jarayonining mazmuni</b>	Dars jarayonida firmani tuzilishi, uning nizom jamg’armasi va unga kim qancha ulush qo’shishi, ta’ sis shartnomasi, kim boshqarishi, foyda qanday taqsimlanishi, kim nima bilan shug’ullanishi va mavzuga doir masalalar yoritiladi.
O’quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p><b>Dars turi:</b> Yangi materialni o’rganuvchi dars.</p> <p>Metod: guruhlarda ishlash;</p> <p>Vosita: tarqatma materiallar: matn va rasmlar, doska, test kartochkalari</p> <p>Nazorat: og’zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o’z-o’zini nazorat qilish</p> <p>Baholash: rag’batlantirish, 5 balli tizimda baholash</p>
Kutiladigan natijalar	Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishiga erishiladi. O’quvchi faolligi oshadi, darsga nisbatan qiziqishi uyg’onadi, barcha o’quvchilar baholanadi, o’quvchi tomonidan yozma axborotni mustaqil o’rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va javob berishga o’rgnadi
Kelgusi rejalar (tahlil, o’zgarishlar)	<p>O’qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o’zlashtirish va darsda tadbiq etish, takomillashtirish. O’z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog’lash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O’quvchi: Matn bilan mustaqil ishlashni o’rganadi. O’z fikrini ravon bayon qila oladi, shu mavzu asosida qo’shimcha materiallar topadi, ularni o’rganadi. O’z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini oshiradi.</p>

## ***Mavzu Firmani ochish tartibi***

### **1.Dars maqsadi :**

- firmaning asosiy hujjatlari haqida malimotga ega bo'lish.
- firmani ochish bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish

### **II.Darsda yoritilishi lozim bo'lgan asosiy atama va tushunchalar:**

- firmaning nizomi ;
- firmaning tasis shartnomasi

### **III.Dars uchun zarur jihozlar va ma'lumot manbalari :ko`rsatmalar, topshiriqli tarqatmalar**

9- sinf darsligi

### **IV.Darsning bosqichlari va vaqt taqsimoti:**

1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2.	Uyga berilgan vazifani tekshirish	5 daqiqa
3.	Yangi mavzuni yoritish: a) maruza b) guruhlarda ishlash; d) xulosa	10-daqiqa 12- daqiqa 3- daqiqa
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	8-daqiqa
5.	Darsga yakun yasash va baholash	3 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

### **V. Darsning tafsilotlari:**

#### **1.Tashkiliy qism.**

O'quvchilar bilan salomlashib davomat tekshiriladi.

O'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash

#### **2.Yangi mavzuni yoritish**

Firmaning nizomi- firmaning ichki va tashqi faoliyatini tartibga solib turuvchi xuquqiy kuchga ega meyoriy xujat. Firmaning nizomida firma nomi, manzili, kimlar tomonidan tasis qilinayotganligi, firmani tashkil qilishdan maqsad, shakli, firma faoliyatini yuritish uchun qancha boshlang'ich mablag'- nizom jamg'armasi safarbar qilinishi, firma tasischilarining qo'shgan hissasi, firma mol mulking tarkibi, uni hosil qilish tartibi, mehnatga haq to'lash va dam olish, firmaning tugatilish tartibi haqidagi ma'lumotlar bo'ladi.

Firmaning nizomida ko'zda tutilgan har bir bank tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi qonunga zid bo'lmasligi kerak.

Tasis shartnomasi-firma ta'sisichilari o'rtasida tuziladigan o'zaro faoliyat yuritish bo'yicha kelishuv hujjati.Tasis shartnomasi firmani tashkil qilish, faoliyat yuritish, boshqarish tamoyillari va mexanzmi, nizom jamg'armasining tarkibi va unga qo'shiladigon tasischilar ulushlari, foydani tasischilar o'rtasida qanday taqsimlash qoidalari, firmaning ichki boshqaruv tizimlari firma maqomini o'zgartirish va tugatish bilan bog'liq yo'l-yo'riqlar va kelishuvlar o'z aksini topgan bo'ladi.

Firma nizomi va ta'sis shartnomasi tayyorlangandan so'ng ta'sisichilar o'rtasida nizom va ta'sis shartnomasi ko'rib chiqiladi hamda imzolanadi. Firmaning tashkil qilish bo'yicha qaror qabul qilinib, bu qarorda tuman hokimligidan firmani ro'yxatdan o'tkazish so'raladi. Bu hujjatlar ni tuman (shahar) hokimligi firmani ro'yhatdan o'ykazish so'raladi. Bu hujjatlarni tuman (shaxar) hokimligi belgilangan ma'lum vaqt davomida ko'rib chiqadi va qonunga zid bo'lgan holatlar bo'lmasa firma ro'yhatga olingaligi to'g'risida qaror qabul qilinadi, maxsus guvoohnoma beriladi . Bu qaror firmaning ochilganligidan va faoliyat yuritishi mumkinligidan dalolat beradi. Bu qaror ostida 30 kun ichida biror bankda hisob raqami ochiladi, nizom jamg'armasida ko'zda tutilgan mablag' ushbu hisob raqamiga qo'yiladi, va firmaning iqtisodiy faoliyati boshlanadi.

Bundan tashqari firmaning nomi tushirilgan dumaloq va uchburchak muhrlar tayyorlanadi, soliq inspeksiyasi, boshqa tashkilotlarda tuman (shaxar) statistika bolimlari, tuman tadbirkorlar palatasidan ham ro'yxatdan o'tiladi.

Yuqorida keltirilgan asosiy nazariy material tushuntirilgandan so'ng, faollashtiruvchi savol va topshiriqlarga o'tiladi. Sinf 4 guruhga ajratiladi. 10 daqiqa davomida har bir guruhga o'z firmasini ochish, unga nom qo'yish, uning nizomi, ta'sis shartnomasini tuzish, firma belgisini chizish topshiriladi. So'ng guruhlar javobi baholanadi.

#### 5. Yangi mavzuni mustahkamlash.

<< Bilimingizni sinab ko'ring>> bandidagi 2-,4-,6-,7 savollar tahlil qilinadi.

#### Mavzu bo'yicha qisqa javobli test o'tkaziladi:


1. Firmaning ichki va tashqi faoliyatini tartibga solib turuvchi xuquqiy kuchga ega meyoriy xujjat nomi qanday ataladi? (Firma nizomi)
2. Firma ta'sischilari o'rtasida tuziladigan o'zaro faoliyat yuritish bo'yicha kelishuv hujjati (Tasis shartnomasi)
3. Firma qayerda ro'yxatdan o'tkaziladi? (Tuman hokimiyatidan)
4. Firmaning o'z nomi, muhri va belgilari bo'lib, ular davlat ro'yxatidan o'tkaziladi va firmaga iqtisodiy faoliyat qatnashchisi sifatida .....shaxs maqomi beriladi (yuridik)
5. Firmaning pul bilan bog'liq barcha ishlari ..... Orqali amalga oshiriladi. (bank)

#### 6. Dars mavzusini yakunlash va baholash.


Faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi, va jurnalga rasmiylashtiriladi.

#### 7. Uyga vazifa.

1. "Bilimingizni sinab ko'ring" dagi savollarga javob.
2. 23 sahifada berilgan topshiriqni bajarish



## Mavzu: Firma ochish



## Firma nizomi

1. Firma nomi:
2. Manzili
3. Firma ochishdan ko`zlangan maqsad:
4. Faoliyat turlari
5. Firma kim tomonidan tashkil etildi:
6. Firmaning tashkiliy shakli
7. Nizom jamgarmasidagi mablag`
8. Ta'sischilarning nizom jamg`armasidagi hissasi
9. Firma mol-mulki tarkibi

N	Atamalar mazmuni	Atamalar nomi
1	Kishilarning foyda olish maqsadida, tavakkalchilik asosida, o'z mablag'i, mulki, bilimi va imkoniyatlarini ishga solib, tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyati.	
2	Foyda olish maqsadida ishlab chiqarish resurslaridantovar va xizmatlar yaratish uchun tavakkalchilikni zimmasiga oladigan kishilar..	
3	Biznes g'oyani amalga oshirish maqsadida qilinishi lozim bo'lgan, o'zaro xatti – harakatlar dasturi.	
4	Tovarni sotib olib, so'ng boshqaga sotishdan iborat tadbirkorlik faoliyati.	
5	pul va qimmatli qog'ozlar oldi- sotdisi bilan bog'liq faoliyat.	
6	Xaridor va sotuvchini o'zaro uchrashtirib, tovar oldi-	



	<b>sotdi jarayonlarini tezlashtirishga qaratilgan faoliyat.</b>	
<b>7</b>	<b>Turli xil kutilmagan holatlar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy muammolardan muhofaza qilish.</b>	
<b>8</b>	<b>Ehtiyojlarning cheksizligi va resurslarning cheklanganligi</b>	

